

---

## E'TIBOR

Respublikamizda barkamol avlod, bolalarimiz kelajagini ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini bugun chekka hududlarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. So'x tumanida bu yo'nalishda arziqli ishlar amalga oshirilayapti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 755-sonli qarori asosida Istiqlol mahalla fuqarolar yig'ini hududiga bolalar sog'lomlashtirish oromgohi qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu ezgu maqsad uchun 4,90 gektar yer maydoni ajratib berilgan.

«Bugungi kunda qurilish ishlarini boshlash uchun loyiha-smeta hujjatlari tayorlanmoqda va tez kunlarda qurilish ishlari boshlanadi», - deya xabar beradi tuman hokimligi qurilish ishlari bo'yicha bosh mutaxassisi Oxonjon Oxonjonov.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-03-15 17:07:28